



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA TURKMANISTONNING MADANIY
GUMANITAR HAMKORLIGI TARIXI .(1991-2025-yillar)**

Mirzayev G'ulom Rizoqulovich

Jamoat xavfsizligi universiteti o'qituvchisi. Tarix fanlari doktori, dotsent

Tajimuratov Doniyor Baxromovich

Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

tajimuratovdoniyor55@gmail.com

Tel: +99899 650-19-19

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston davlatlari o'rtaida madaniy gumanitar hamkorlik aloqalari kengayib borishi, ikki davlat azaldan qardosh xalqlar ekanligi, Arxeolog olimlarimiz tomonidan qadimgi davrga oid yodgorliklar, turkman gilamlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, turkman iborasining kelib chiqishi, turkman urug 'lari, yurtimizda yashayotgan turkman birodarlarimiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston davlat rahbarlarining hamkorlik aloqalari, "O'zbek-Turkman do'stlik uyi" va "Ulli hovli" majmualari, 'zbekiston va Turkmaniston parlamentlari o'rtaida hamkorlik aloqalari

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston davlatlari, Yangaja, Qora Tanger, Bekarslontog', Joytun yodgorliklari, "Turkman" iborasi, Turkman va O'zbek gilamdo'stlari, ikki davlat o'rta sidagi strategik hamkorlik, "O'zbek-Turkman do'stlik uyi" va "Ulli hovli" majmuasi", O'zbekiston va Turkmaniston parlamentlari, Mahtumquli

O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston davlatlari o'rtaida madaniy gumanitar sohada hamkorlik kengayib bormoqda. Xususan, gumanitar almashinuvlarni kengaytirish, ta'lim, fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, turizm va sport sohalaridagi hamkorlik rivojlanmoqda. Madaniy-gumanitar yo'nalishdagi hamkorlikning asosini ikki xalqni o'zaro yaqinlashtirish, tajriba



almashish, uyg‘un an’ana va urf-odatlarni asrash va keyingi avlodga yetkazish tashkil etadi. O‘zbek va Turkman xalqlari azaldan qardosh xalqlar bo‘lgan. Ikki xalq ham do’stlikni qadrlaydi. Respublikamizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida so‘nggi yillarda juda katta amaliy ishlar bajarilmoqda. Xususan, mamlakatimizda yashovchi 130 dan ortiq millat va elat vakillari “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” shiori ostida birlashib, hukumat miqyosida turli millat vakillari milliy o‘ziga xosligiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Arxeolog olimlarimiz ham Turkmaniston janubidan tosh davrining turli bosqichlariga oid yodgorliklarda qazishma ishlarini olib borganlar. So‘nggi paleolit davriga Yangaja, Qora Tanger, Bekarslontog‘ yodgorliklari topilgan. Bu yodgorliklar mil.avv 200-150-ming yil qadimiy davrga to‘g‘ri keladi. Demak bizning ota bobolarimiz qadim zamonlardan buyon yaqin munosabatda yashab kelganlar.¹ Yangaja II joy makoni Turkmanistondagi so‘nggi tosh asri joy-makoni va ustaxonalaridan biri hisoblanadi. Bu ustaxona makon Turkmanistonning janubiy-g‘arbiy hududida topilgan.² Turkmanistonda yana neolit yangi tosh davriga oid Jebel makoni ham mavjud bo‘lgan. Bu yerdagi buyumlarning mil.avv V mingyillikning oxiri va IV mingyillikka mansub ekanligini ko‘rsatadi. Joytun makoni ham Turkmanistonda joylashgan. Bu yodgorlik O‘rta Osiyodagi eng mashhur neolit davri yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bu ibridoq qishloq bir nechta uydan tashkil topgan. Qadimi tepa ham neolit davriga oid yodgorlik hisoblanadi.³ Turkmanistonda yana O‘rta Osiyodagi eng qadimgi dehqonchilik manzillaridan biri hisoblangan Joytun yodgorligi ham bor. Joytun madaniyati mil.avv VI-V mingyilliklarga mansub neolit davri yodgorligi hisoblanadi.⁴ Arxeologiya sohasida Turkmanistonda hali ko‘plab yodgorliklar o‘rganilmagan. Ularni tadqiq qilsak bobolarimiz qoldirib ketgan yodgorliklarni butun dunyoga namoyish qilgan bo‘lardik. Turkmaniston hududida o‘rganilmagan qadimiy yodgorliklar ko‘p. Avval mavjud bo‘lgan qazishma ishlarini hozir ham davom qildirish maqsadga muvofiq. Buning uchun O‘zbekiston

¹ J.Kabirov, A.Sagdullayev. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent o‘qituvchi 1990-yil. 24-bet

² Shu manba 56-bet

³ J.Kabirov, A.Sagdullayev. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent o‘qituvchi 1990-yil. 92-bet



arxeologlari yordami zarur. Do'st achitib gapiradi dushman kuldurib degan maqol bor o'zbeklarda. Turkman do'stlarimizga bizning yordamimiz zarur deb o'ylayman arxeologiya sohasida.

O'zbek va turkman xalqlari azal-azaldan yaqin do'st, ahil qo'shni, strategik hamkor sifatida mushtarak maqsadlar bilan yashab kelgan. Shu sababli, ikki davlat o'rtaсидagi munosabatlarning ildizi uzoq tarixga borib taqaladi va o'zaro hurmat, ishonch asosiga qurilgan.⁵

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak bir daryodan suv ichgan tili, dini, urf-odatlari, qadriyatlari o'xshash bo'lgan o'zbek va turkman xalqlarining do'stlik va birodarligi uzoq o'tmishta borib taqaladi. Ikki xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzini ham bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu kabi o'xshash jihatlarni ikki xalqning amaliy san'atida ham ko'rish mumkin. Masalan, gilamdo'stlik hunari o'zbek va turman xalklari uchun birdek qadrli bulgan amaliy san'at yo'nalishi bo'lib kelgan. Bu hunar turi har ikki xalqning ham milliy iftixori va g'ururiga aylangan. Ayniqsa turkman gilamlari o'zining tabiiyligi, rangdorligi, naqshlarining uyg'unligi bilan ajralib turadi. O'zbek gilamlarining ham bu kabi e'tirof etadigan jihatlari ko'p. So'nggi yillarda Turkman va O'zbek gilamdo'stlari o'rtaсиda yaqin hamkorlik aloqalari mustahkamlanib bormoqda. Buxoro shahrida "Turkman xovli" korxonasiga asos solingan. Bugun mazkur korxonada turkman xalqining milliy brendi hisoblangan gilamlar ishlab chiqarilmoqda. Turkman gilamlari sof tabiiy xomashyo qo'y juni va ipakdan tayyorlanadi. Turkmanistonda gilam to'qish uchun mayin va jun beradigan qo'ylar maxsus boqiladi. Gilamning hajmi va tikuvchining mahoratiga qarab bir dona gilamni taylorlash 10 kundan 60 kungacha xatto undan xam ko'p vaqt talab etadi. Qayd etish joizki turkman gilamlari shu xalqning milliy brendi hisoblanadi hamda har oyning so'nggi yakshanba kuni Turkmanistonda milliy bayram Xol bayrami sifatida keng nishonlanadi.

Etnograf O.Tumanovichning fikricha, "turkman" nomi arablar tomonidan berilgan. Chunki, arablar janglarda o'g'uzlarning qattiq qarshiliklariga duch kelib,

⁵ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkmaniston-doston-a-ahil-qoshnichilik-munosabatlari-rivojlanmoqda>



ularni umumiy nom bilan “turkman” deb atagan edi. Ushbu so‘z arabchada “turkiy ruhlar, turkiy mavjudotlar va majoziy manoda turkiy xalq” degan ma’noni anglatadi.⁶

Rossiyalik tadqiqotchi N.Dubova tomonidan to‘plangan ma’lumotlar asosida yozilgan, “Xalqlar va madaniyatlar” ensiklopedik etnologik to‘plami hisoblangan asar turkman xalqi tarixi va madaniyatining turli jihatlari: tarixiy, etnografik hamda antropologik materiallar jamlanmasini o‘z ichiga oladi. Asarda turkman etnografiyasining o‘rganilish tarixi, yashash tarzi, kundalik hayoti, turkmanlarning xo‘jalik mashg‘ulotlari, turar joylari, kiyim-kechaklari, ovqatlanish tizimi, urf-odat va marosimlari masalalari yoritib berilgan.⁷

XI–XII asrlarga oid tarixiy manbalarga tayanadigan bo‘lsak, o‘g‘uzlarning 24 ta urug‘i bo‘lib, ularning ko‘pchiligini nomlari hozirgi zamon turkman urug‘ va qabilalarining nomlarida saqlanib qolgan. Tarixiy-etnografik adabiyotlarda keltirilishicha, turkmanlarning xalq sifatida to‘liq shakllanishi XV asrga to‘g‘ri keladi va mazkur jarayon asosan, ushbu 24 ta urug‘ doirasida ro‘y bergen. “XV asrga kelib, turkman xalqining shakllanish davri nihoyasiga yetgan. Ushbu davrda turkman etnosiga, ayrim o‘g‘uz bo‘lmagan turkiy qabilalar, jumladan, qipchoqlar ham qisman kelib qo‘silgan. Turkmanlarda urug‘larga ajratish saqlanib qolgan.⁸

Ammo, XVI asrga kelib, ba’zi yangi qabilalarning paydo bo‘lishi natijasida 24 ta qabiladan ayrimlarining nomi tilga olinmay qo‘ydi. O‘z o‘rnida shuni ham qayd etish kerakki, turkmanlarda qabila-urug‘larga ajratish hozir ham saqlanib qolgan. Ulardan eng yiriklari teke, yovmut (yovut), ersari, solir, sariq, go‘klan va chovdirlar hisoblanadi.⁹

⁶ Туманович О. Туркменистан и туркмены (Материалы к изучению истории и этографии). – Ашхабад, 1926. – С. 90.

⁷ Туркмены / Отв. ред. Н. А. Дубова. – М.: Наука, 2016. – 635

⁸ Ashirov. A. Etnologiya: O’quv qo’llanma.... – B. 292

⁹ Doniyorov A. X., Bo’riyev O. B., Ashirov A. A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi... – B. 122.

8 Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – Москва, 1948. – 351 с



Mustaqillik yillarda O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi strategik hamkorlikning huquqiy asosi sifatida qator tarixiy hujjatlar imzolandi. Do‘stona munosabatlarni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish, o‘zaro yordamni ayamaslik mazmunidagi 1996-yil 16-yanvar, 2004-yil 19-noyabr va 2007-yil 18-oktabrdagi kelishuv hujjatlari – shartnomalar shular jumlasidan.

206 mingdan ziyod turkman birodarlarimiz jonajon yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida mehnat qilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda turkmanlarning milliy madaniyati, tili, an‘analari va urf-odatlarini asrash hamda rivojlantirish maqsadida Respublika turkman madaniy markazi faoliyati uchun barcha imkoniyatlar va shartsharoitlar yaratilgan.

So‘nggi yillarda an‘anaviy do‘stlik va hamkorlik aloqalari yangi zamon ruhida rivojlanmoqda. Ayniqsa, ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi.

2017-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Prezident qilib saylangandan keyin Turkmaniston davlati bilan hamkorlik aloqalari yanada rivojlandi. 2017-yil davomida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama doiralarda bir qator oliy darajadagi uchrashuvlar o‘tkazildi. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yangi sifatli bosqichiga ko‘tarildi. Buning yorqin dalilini, 2017-yilning mart oyida imzolangan “Strategik sherikchilik to‘g‘risidagi” Shartnomada ko‘zda tutilgan quyidagi bandlarda ko‘rishimiz mumkin.

2017-yil 1-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o‘rtasida strategik sheriklik to‘g‘risida shartnomani (Ashxobod, 2017 yil 6 mart) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonuni qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 6–7 mart kunlari Turkmanistonga ilk davlat tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik sohasida tub burilish yasadi. Tashrif yakuniga ko‘ra, ikki davlat rahbarlari Qo‘shma bayonotni, O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomani imzoladi. Tegishli vazirlik va idoralar o‘rtasida iqtisodiy, transport, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik dasturlari, O‘zbekistondan Turkmanistonga qishloq xo‘jaligi texnikalari va kimyo mahsulotlari yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnomalar,



Xorazm viloyati bilan Dashovuz viloyati, Buxoro viloyati bilan Lebap viloyati hokimliklari o‘rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolandi.

Turkmaniston Prezidentining 2018-yil 23–24 aprel kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi ham do‘stlik munosabatlari va strategik sheriklikni rivojlantirishda muhim voqeа bo‘ldi. Tashrif davomida Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuxamedovning Qo‘shma bayonoti imzolandi.

Bir makonda mushtarak maqsadlar asosida yashab kelgan o‘zbek-turkman xalqlarining o‘zaro uyg‘unlikdagi etnografik madaniyatini targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston Respublikisi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-dekabrdagi “Xorazm viloyatidagi “O‘zbek–Turkman do‘stlik uyi” va “Ulli hovli” majmuasi” direktsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida Urganch tumani G‘oybu qishlog‘i “Turkmanlar” mahallasi hududidagi “O‘zbek–Turkman do‘stlik uyi” va “Ulli hovli” majmuasida joylashgan bino va inshootlarni saqlash, kelajak avlodga yetkazish bo‘yicha ko‘plab sa’y harakatlar amalga oshirildi.

2018-yil 23-aprel kuni Toshkent shahrida Ashxobod sayilgohi ochildi, 2016-yil noyabrda mamlakatimizda Turkmaniston madaniyati kunlari, 2017-yil noyabrda esa Turkmanistonda O‘zbekiston madaniyati kunlari o‘tkazildi.

Bu ham ikki qardosh xalqning mushtarak madaniyati va tarixiga qaratayotgan yuksak e’tibori namunasidir. Turkman va o‘zbeklarning tarixi, madaniyati, tili va urf-odatlarida juda ko‘plab umumiy jihatlar bo‘lishiga qaramasdan mintaqada yashovchi turkmanlar o‘ziga xos madaniyati, ijtimoiy, jamoaviy turmush tarzi va milliy an’analari bilan farqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagи “Millatlararo munosabatlар va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5046-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 maydagи O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Millatlararo munosabatlар va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2993-sonli Qarori, 2019 yil 15 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining



“Millatlararo munosabatlар sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5876-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 29 dekabrdagi “Xorazm viloyatidagi “O‘zbek-Turkman do‘slik uyi” va “Ulli hovli” majmuasi direksiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 815-sonli, 2021-yil 15-iyundagi “2021–2022 yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 369-sonli Qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish hamda etnologiya fanining ayrim muammolarini yoritishga xizmat qiladi. Rossiya imperiyasi davrida e’lon qilingan ishlar bo‘lib, bu ishlarda asosan, turkmanlarning etnik tarkibi, urug‘ qabilaviy tuzilishi, urf-odat va marosimlari, “turkman” etnonimining kelib chiqishi kabi masalalar etnografik jihatdan tavsiflangan. Mavzu doirasida bu davrda yaratilgan asarlarga A.L.Kun, G.I.Danilevskiy, A.V.Kaulbars, I.N.Veselovskiy, Sh. Ibragimov va N.Muravevlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin.¹⁰

1842-yilda Xivaga kelgan polkovnik G.I.Danilevskiy xonlikdagi turkmanlar haqida to‘liq bo‘lmasa-da, ayrim ma’lumotlarni qoldirgan. Muallif asosan, Rossiya bosqini arafasida Xiva xonligining turkmanlar bilan munosabatlari to‘g‘risida to‘xtalgan.¹¹

Ajdodlarimizning ilmiy va adabiy merosi xalqlarimizning umumiyligi mulki sanaladi. Turkmanistonda Hazrat Navoiy, O‘zbekistonda Maxtumquli asarlari kirib bormagan xonadon yo‘q, desa bo‘ladi.

¹⁰ Кун А. Л. От Хивы до Кунграда. – МСТ. Вып. IV. – 1876. – С. 203–222; Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г. // ТС. – Ташкент, 1873. Т. 83. – С. 184–189; Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства // Записки Императорского Русского географического общества. Кн. V. – СПб., 1851; Муравьев Н. А. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах, гвардейского Генерального Штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров. – М.: Типография Августа Семена, 1822;

Каульбарс А. В. Низовья Аму-Даръи, описанные по собственным исследованиям в 1873 г. / Записки ИРГО, 1881. Т. IX.; Веселовский И. Н. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времен до настоящего времени. – СПб., 1877.; Описание Хивинского ханства и дороги туда из Сарайчиковой крепости // ЗРГО. Кн. 2. – СПб., 1861.; Ибрагимов Ш. Некоторые заметки о хивинских туркменах и киргизах (Из записной книжки) // Военный сборник издаваемый по высочайшему повелению. Год семнадцатый. Том. LXLXI. – СПб., 1874. – С. 133–163.

¹¹ Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства.... – С. 62–139



Xususan, 2017-yil 6-martda imzolangan Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnama va 2022-yil 21-oktyabrdan imzolangan Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi deklaratsiya ikki tomonlama hamkorlikning mustahkam shartnomaviy-huquqiy asosi sifatida xizmat qilmoqda.

Davlatimizning ochiq va pragmatik tashqi siyosati, ikki qardosh xalq o‘rtasidagi do‘stona aloqalar va o‘zaro ishonch mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish va kengaytirishning muhim omili hisoblanadi. Buning amaliy ifodasini oliy darajadagi o‘zaro tashriflar soni ortganligida ham ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston va Turkmaniston parlamentlari o‘rtasida hamkorlik aloqalari ham rivojlanmoqda. O‘zbekiston va Turkmaniston rahbarlari o‘rtasida o‘zaro ishonch munosabatlari ikki tomonlama va mintaqaviy formatda, shu jumladan, parlamentlararo yo‘nalishda muvaffaqiyatli rivojlanib borayotgan ko‘p qirrali hamkorlik uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, qardosh xalqlarimiz o‘rtasida madaniy-ma’rifiy aloqalar yil sayin faollashib borayapti, turli konsert va festivallar, ko‘rgazmalar tashkil etilmoqda, madaniyat va kino kunlari o‘tkazilmoqda, yurtimizda turkman milliy madaniyat markazlari ishlamoqda.

2018-yilda Toshkent shahrining markaziy ko‘chalaridan biriga turkman xalqining buyuk farzandi, mutafakkir shoir, turkman adabiyotining yorqin namoyandasasi Maxtumqli nomi berilib, so‘lim xiyobon barpo etildi, shoir siymosi aks etgan barelef o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov 23-24 aprel kunlari tashrif bilan Samarqand shahrida bo‘ldi. Ushbu kunda ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlandi. Joriy yilda Xiva shahrida uchinchi Hududlar forumini hamda O‘zbekistonda Turkmaniston madaniyati kunlarini o‘tkazishga kelishib olindi.

O‘zbekiston va Turkmaniston yetakchilari mintaqaviy sheriklikka doir masalalar, shu jumladan, “Markaziy Osiyo plyus” formatidagi bo‘lajak sammitlar va



Toshkent shahrida o‘tkaziladigan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan fikr almashdilar. Davlatimiz rahbari Turkmaniston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan e’lon qilingan “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” doirasida joriy yil dekabr oyida Ashxobod shahrida o‘tkaziladigan forum va boshqa xalqaro tadbirlar muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidladi. Uchrashuvda O‘zbekiston Prezidenti Turkman xalqining milliy yetakchisiga uning qalamiga mansub “Tafakkur gavhari” kitobining o‘zbek tilidagi nusxasini topshirdi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki ikki qo‘shni, do‘sst, tarixi, urf-odati, dini, madaniyati, tili o‘xhash davlatlarni bir-birisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Turkmaniston davlati rahbari ham buni inkor qila olmaydi. Shu o‘rinda o‘zbek xalqining bir maqolani keltirishni joiz topdim. “Mol sotsang qo‘shningga sot bir chekkasida o‘zing o‘tirasan. Hozirgi betartib dunyoda ikki davlat har tomonlama madaniy gumanitar sohada bo‘ladimi, savdo sotiq, transport, ta’lim, sport, turizm sohalarida o‘zaro yaqin hamkor bo‘lishlari lozim deb o‘ylayman. O‘zbekiston Respublikasi ko‘p sohalarda oldingi o‘rinlarda. Bu yutuqlarni qo‘shni Turkman birodarlarimiz bilan bo‘lisha olamiz. Tarixdan ham ma’lumki bizlar do‘sst bo‘lganmiz va bu do‘sligimiz yanada mustahkamlanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. J.Kabirov, A.Sagdullayev. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent o‘qituvchi 1990-yil
2. Туркмены / Отв. ред. Н. А. Дубова. – М.: Наука, 2016
3. Ashirov. A. Etnologiya: O’quv qo’llanma. Toshkent, 2014
4. Doniyorov A. X., Bo’riyev O. B., Ashirov A. A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. Darslik. – Toshkent 2020
5. Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – Москва, 1948
6. Кун А. Л. От Хивы до Кунграда. – МСТ. Вып. IV. – 1876



7. Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г. // ТС. – Ташкент, 1873
Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства // Записки Императорского Русского географического общества. Кн. V. – СПб., 1851;
8. Муравьев Н. А. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах, гвардейского Генерального Штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров. – М.: Типография Августа Семена, 1822;
Каульбарс А. В. Низовья Аму-Дарьи, описанные по собственным исследованиям в 1873 г. / Записки ИРГО, 1881.
9. Т. IX.; Веселовский И.Н. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времен до настоящего времени. – СПб., 1877
10. Описание Хивинского ханства и дороги туда из Сарайчиковой крепости // ЗРГО. Кн. 2. – СПб., 1861.; Ибрагимов Ш. Некоторые заметки о хивинских туркменах и киргизах (Из записной книжки) // Военный сборник издаваемый по высочайшему повелению. Год семнадцатый. Том. LXLXI. – СПб., 1874
11. Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства.... – СПБ 1851
12. [https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkmaniston-dostona-va-ahil
qo'shnichilik-munosabatlari-rivojlanmoqda](https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkmaniston-dostona-va-ahil-qo'shnichilik-munosabatlari-rivojlanmoqda)
13. Даля ёзувлари. Хоразм вилояти Янгиариқ тумани Гулланбог қишлоғи.
2020 йил